

BOLA NUTQI SHAKLLANISHIDA VERBAL VA NOVERBAL NUTQNING PSIXOLINGVISTIK OMILLARI

Almardanova Iroda Toshmamatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

iroda_almardanova@tues.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada bola nutqida uchraydigan o'zgarishlar shuningdek, ularning nutqiy faoliyatida verbal va nonverbal shakllarni yuzaga chiqarishi va jarayonlarni psixologiya hamda psixolingvistika fanlari bilan bog'liqligini va bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning tadqiqot natijalari ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixolingvistika, verbal, nonverbal, bola nutqi.

ABSTRACT

The article examines the changes in children's speech, as well as the emergence of verbal and nonverbal forms in their speech activity and the relationship of these processes with the sciences of psychology and psycholinguistics, and the scientific validity of the research results of scientists who have conducted scientific research in this area.

Keywords: Psychology, psycholinguistics, verbal, nonverbal, child speech.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются изменения в речи детей, а также появление вербальных и невербальных форм в их речевой деятельности, взаимосвязь этих процессов с психологией и психолингвистикой, а также научная обоснованность результатов исследований учёных, проводивших научные исследования в этой области.

Ключевые слова: Психология, психолингвистика, вербальное, невербальное, детская речь.

KIRISH

Psixolingvistika - nutqning hosil bo'lishi, shuningdek nutqni idrok etish va shakllanishi jarayonini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan.


Psixolingvistika o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. "Psixolingvistika" terminini amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritildi.

Psixolingvistikaning shakllanishida Ch.Osgud va T.Sebeok nomlarini tilga olmaslikning iloji yo'q.

Bundan tashqari psixolingvistkaning ildizlari Gumbolt, Kurtene ilgari surgan til haqidagi nazariyalarda, shuningdek, “Yosh grammatikachilar” maktabi vakillari g‘oyalarida ham o‘z ifodasini topgan. Rus tilshunosligida Axustina Fyodirova, Reyeva, Saxarniy, Belyaninlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. O‘zbek tilshunosligida psixolingvistik izlanishlar kamyob bo‘lsa-da, Sh.Safarov, Sh.Usmonovalarning shu o‘rinda tadqiqotchi D.Ergashevaning ilmiy izlanishida ham fanning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar (ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o‘rgatish)maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari miyasidagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi, muammolari (xususan, ommaviy axborot vositalarida faoliyatida va targ‘ibot ishlarida, sud psixologiyasi va kriminalistika (mast, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash) mashina tarjimasi hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolarni hal etish ijtimoiy psixologiya bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Nutqiy aktning shakllanishida verbal birliklar bilan birga ishtirok etuvchi noverbal vositalar muloqotning yordamchi vositalari sanaladi. Bolalarning muloqot jarayonida qanday nutqiy akt turini tanlashi ularning psixologik holati, ayniqsa, yosh xususiyati bilan bog‘liq. Masalan, uch yoshli bolalar ko‘pincha so‘roq aktlaridan foydalanadilar. Nutqning verbal va noverbal ko‘rinishlari haqida gapirganda, psixolingvistik yondashuv ta’sir omillari sifatida tadqiq qilishimiz, maktabgacha bolalar yoshida kuzatiladigan verbal nutq ta’sirida bola ruhiyatida kechadigan jarayonlarni kuzatganimizda unda ham nutqiy faoliyatni o‘zlashtirishlari va amalda qo‘llashlariga guvohi bo‘lamiz: ***jahli chiqqanda tishlanib muloqotda bo‘lishi, qovoq uyushi, ko‘z qirini tashlashi*** yuz ifodasida aks etgan psixologik ong ta’sirida yuzaga chiqaradi. Nutqiy faoliyatga verbal va noverbal shakllarni olgan holda quyidagilarni psixolingvistik jarayonni yuzaga chiqqanini ko‘ramiz: (1- va 2- suratlar;)



Bundan tashqari, L.S.Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalarning taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug'ma shakllari mavjud bo'lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o'zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligidagi ilk ijtimoiy psixolingvistik asarlar A.Umarxo'jayevaning "Bolalar nutqi haqida ba'zi mulohazalar" va M.Kenjaev, M.Norboshevaning "Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutq madaniyatini rivojlantirish" tadqiqotchilar izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Bola nutqi shakllanishida nutqning lisoniy voqealanishi o'ziga xos til hodisasidir: 2-3 yoshli bola o'zi bilgan narsani nomlashi uni ranggi va shakliga qarab boshqa narsani ham shu nom bilan nomlaydi. Masalan: bola "**olma**" mevasini idrok qilgan holda, unga o'xshash boshqa mevani ham "**olma**" – deydi. Shu o'rinda e'tibor qaratadigan bo'lsak, bolalar nutqida muhit orqali shakllanishi makon va zamonda ham o'zgaradi: **halinchak**, **kachela** so'zlashuv uslubida xos so'zlar **arg'imchoq** ishlatilishini ko'p hollarda kuzatamiz. Bola tug'ilib rivojlanayotgan olamni lisoniy jihatdan o'rganib til birliklarini ham lisonda shakllantiribgina qolmay uni nutqqa chiqaradi. Bunda albatta, ijtimoiy-psixologik ruhiy, kognitiv jarayonlarni qamrab olgan holda bola nutqining shakllanish bosqichlariga ta'sirini ifodalaydi.

Psixolingvistikaning fan sifatida shakllanishida albatta, nutqiy faoliyatda ruhiyatning xulq-atvorda aksi ta'sirini yuzaga chiqqanini ko'ramiz.

Bu jarayonlar tilshunoslarning tilga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiribgina qolmay, tilning amaliy ahamiyati haqida bosh qotiradilar va muammolarga yechim izlaydilar. Antroposentrik nazariyaga asosan, "til egasi" shaxs tushunchasi ostida birlashgan. Bu esa psixologiya va lingvistika fanlarining o'zaro kesishuvi psixolingvistik tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Nutqning shakllanishi va uning voqealanishi bolalar nutqida ham o'ziga xoslikni ko'rsatadi. Bola o'z fikr va munosabatini, murakkab psixolingvistik holatini muloqot jarayonlaridagi ishtiroki orqali shakllantiradi. Shuningdek, psixologik jihatdan nutq rivojlanishi bolaning jismoniy barkamolligida sog'lom rivojlanishi uning nutqiga ta'sir omillarini kuchaytirib boradi. Bu nazariyalar ko'plab yangi tadqiqotlarning maydonga kelishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent — 2006. B. 160.
2. Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2018. - Б.72
3. Sharofova N. Nutq faoliyatini shakllanishida psixolingvistik qarashlar // Inter education & global study. 2025. №3 B.650–655.
4. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0051/51_i_20241017_171608_5.1.pdf.